

QASHQADARYO MINTAQASI IQTISODIYOTINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BARQARORLIGI TAHLILI

Bekmurodova Saodat Ikromovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

O'zbekistonda mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, hududlarni innovatsion iqtisodiy rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mintaqada innovatsion iqtisodiy rivojlanishni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish, shu asosda aholi bandligini ta'minlash va ularning turmush darajasini yanada yaxshilash kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali tarzda bajarish uchun respublika hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyatini o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ishlab chiqarish ko'lamini oshirish va barqarorligini ta'minlashda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish va istiqbollarni ishlab chiqish bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: innovatsion, raqobatbardosh, kooperatsiya, konsentratsiyalash modeli, klaster, eksport, agrosanoat, agroklastar, tendensiyalar.

Аннотация

В Узбекистане реализуются масштабные реформы в целях обеспечения экономической стабильности регионов и инновационного экономического развития регионов. Опережающее развитие механизма финансово-экономической поддержки инновационного развития экономики региона, создание благоприятной инвестиционной среды для субъектов предпринимательства, поддержка отраслей экономики и социальной сферы, а также строительство новых инфраструктурных объектов на основе государственно-частного партнерства, на этой основе определены такие важные задачи населения, как обеспечение занятости и дальнейшее повышение уровня его жизни. Для эффективного решения этих задач необходимо изучить природный и экономический потенциал территорий республики, определить их специфические особенности, увеличить масштабы производства и провести углубленные исследования по развитию инновационной деятельности и развитию перспектив, что определяет актуальность темы.

Ключевые слова: инновационный, конкурентный, кооперация, модель концентрации, кластер, экспорт, агропромышленный комплекс, агрокластер, тенденции.

Annotation

Uzbekistan is implementing large-scale reforms to ensure the economic stability of the regions and the innovative economic development of the regions. The following important tasks have been set: to rapidly develop the mechanism for financial and economic support for innovative economic development in the region, to create a favorable investment environment for business entities, to support economic sectors and the social sphere, as well as to build new infrastructure facilities on the basis of public-private partnership, to ensure employment of the population and further improve their living standards on this basis. In order to effectively fulfill these tasks, it is necessary to study the natural and economic potential of the regions of the republic, identify their specific features, conduct in-depth research on the development and development of prospects for innovation activities in increasing the scale and ensuring their sustainability, which determines the relevance of this topic.

Keywords: innovation, innovative, competitive, cooperation, concentration model, cluster, export, agro-industry, agro-cluster, trends.

KIRISH

O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari turli tendensiyalarga ega. Mintaqalar iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish tendensiyalari zamonaviy iqtisodiy model va texnologiyalarni joriy qilish orqali mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Quyida ushbu yo'nalishda asosiy tendensiyalar keltiriladi. Texnologik yangiliklar va raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va ularni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things) va blokcheyn kabi texnologiyalarni qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Startup ekotizimlarini rivojlantirish va innovatsion korxonalarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi texnologiyalar va xizmatlar yaratiladi.

Mintaqalarda startup inkubatorlari, akseleratorlar va texnoparklar tashkil etilishi innovatsion biznes muhitini rivojlantiradi. Ilmiy-tadqiqot va rivojlanish faoliyatini kuchaytirish orqali davlat va xususiy sektor tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning oshirilishi mintaqalarning innovatsion salohiyatini oshiradi. Bu, o'z navbatida, yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlarni yaratish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish uchun ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan innovatsiyalar, masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindisiz texnologiyalar mintaqaviy iqtisodiyotning ekologik muammolarini hal qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali innovatsion yechimlarni joriy qilish, mintaqaviy iqtisodiy o'sish uchun muhimdir. Buning uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, moliyaviy yordam va konsalting xizmatlari taqdim etiladi. Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish innovatsiyalarni mintaqaviy iqtisodiyotga joriy

etishda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda xalqaro tajriba almashish, texnologiyalarni import qilish va eksport qilish muhim ahamiyatga ega.

Investitsion faoliyat hududlarning innovatsion rivojlanishiga asos bo‘lib, yangi ehtiyojlarning paydo bo‘lishi va qondirilishini ta’minlaydi. Innovatsion jarayonlarning amalga oshirilishi aholi daromadlarining oshishiga bog‘liqdir.

Zamonaviy innovatsiyalar bir qator yo‘nalishlarda samaradorlikni oshirishga imkon yaratgan. Bular quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish samaradorligi;
- yangi bozorlar va mahsulotlarning paydo bo‘lishi;
- ish o‘rinlarini yaratish;
- sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining oshishi;
- iqtisodiy diversifikatsiya va barqarorlikni ta’minlash.

Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi natijasida texnologik innovatsiyalar, ya’ni yangi texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, energiya sarfini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini berdi. Bu esa mahsulotlar va xizmatlar hajmini oshirishga va shu orqali YaHM o‘shishiga yordam berdi. Shu o‘rinda innovatsion raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi, jumladan, raqamli platformalar va vositalar orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshirildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ menejerlarga sanoat jarayonlari haqidagi tushunchalarini yaxshilashga yordam berish uchun ishlab chiqilgan dinamik tizim modellari hozirgi kunda davlat va xususiy sektorda siyosatni tahlil qilish va loyihalash uchun keng foydalanilmoqda [1, 2, 3].

Zamonaviy konsepsiyani shakllantirishda klaster nazariyasi 20-asr oxirida boshlangan bo‘lib, bu nazariya, birinchi navbatda, mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili sifatida klasteri kalit sifatida ko‘rgan tadqiqotlarga asoslangan. Klasterlar mamlakatlar ichidagi raqobatbardoshlikka, shuningdek, milliy chegaralarga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ular nafaqat global miqyosda raqobatlashayotgan kompaniyalar uchun, balki barcha biznes rahbarlari uchun ham yangi kun tartibini belgilaydi. Kengroq ma’noda, klasterlar joylashuv haqidagi fikrlashning yangi uslubini ifodalaydi. Bu kompaniyalarni qanday sozlash kerakligi, universitetlar kabi institutlarning raqobatbardosh muvaffaqiyatga qanday hissa qo‘shishi va hukumatlarning iqtisodiy rivojlanish hamda farovonlikka qanday yordam berishi mumkinligi haqidagi an’anaviy donolikni qayta ko‘rib chiqishga undaydi, degan fikrlarni mashhur iqtisodchi M. Porter, 1998-yilda bildirgan [4].

Innovatsiyalar sohasida boshqaruv samaradorligi intellektual mulk, ilmiy va bilimga bog‘liqdir. Infratuzilma, xususan universitet infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarda yuzaga keladigan huquqiy va iqtisodiy munosabatlar, patent siyosati va mahsulot muhofazasini shakllantirish tadqiqot va ijodiy ishlar jarayonida tashkilotlar ichidagi intellektual mulkka bog‘liqdir [5].

Taklif etilayotgan yondashuvning sezilarli farqi shundaki, u nafaqat foyda olishga qaratilgan, balki innovatsion faoliyat uchun doimiy yoki oshib boruvchi salohiyatni ta'minlash, klaster korxonalari qiymatini oshirish, bozor ulushini kengaytirish (aksiyadorlar uchun qiymat yaratish), innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish, mavjud mahsulotlar sifatini yaxshilash, bozorlarga chiqish yoki yangilarini yaratish uchun yangi kapitalni jalb qilish, shuningdek, ko'proq ish o'rinlarini yaratish kabi kompaniyaning qiymatini oshirish ko'rsatkichlari dunyodagi eng mashhur reytinglarga kiritilgan [6].

METODOLOGIYA METODOLOGIYA

Innovatsion barqarorlikni tashkil qilish uchun iqtisodiy diversifikatsiyaga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu mintaqada iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasida diversifikatsiyani ta'minlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Mavhum fikrlash, qiyosiy tahlil, guruhlash, tadqiqotda kuzatish, induksiya va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada innovatsiya yo'nalishlari neft-gaz va kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat, to'qimachilik, charm-poyabzal, hunarmandchilik sanoati kabi sohalarda, shuningdek, paxta-g'allachilik, chorvachilik, baliqchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, asalarichilik, issiqxona xo'jaliklari, ziyorat, tibbiy-sog'lomlashtirish, eko-turizm, madaniy meros va magistral yo'l bo'yida ovqatlanish obyektlari bo'yicha olib borilmoqda.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida to'qimachilik sanoati innovatsion yo'nalishda rivojlanib kelmoqda. Bundan tashqari, viloyatda innovatsion klasterlar va startap ekotizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mintaqada innovatsion klasterlarni tashkil etish va startaplar uchun qulay muhit yaratish tendensiyalari ko'zga tashlanmoqda, bu esa infratuzilma va moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan innovatsion ekotizimlarning shakllanishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, viloyatda innovatsion barqarorlikni tashkil qilish uchun iqtisodiy diversifikatsiyaga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Mintaqada iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasida diversifikatsiyani ta'minlash aholi bandligi va daromad manbalarini oshirishga yordam beradi. Innovatsiyalarning barcha sohalarda tatbiq etilishi mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ekologik barqarorlik ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, innovatsion texnologiyalar yordamida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va energiya sarfini optimallashtirish imkonini beradi. Bu mintaqadagi tabiiy resurslarning barqaror foydalanishini ta'minlashga yordam beradi.

Innovatsion rivojlanish muvaffaqiyati inson kapitaliga bog'liq. Shuning uchun mintaqada ta'lim va malaka oshirish tizimlarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat uchun zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash ta'minlanadi. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash natijasida qonunchilik va moliyaviy barqarorlik shakllanadi. Bu esa

mintaqada innovatsiyalar uchun qulay qonunchilik muhitini yaratish, moliyaviy institutlar orqali innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yaxshilash va mintaqaning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Bo'sh ishlab chiqarish omillari mavjud rivojlanish tendensiyalarini kuchaytirishga imkon beradi. Jumladan, raqamli iqtisodiyot, elektron savdo (e-savdo), elektron hukumat va ma'lumotlar tahlili sohalarining rivojlanishi mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohalaridagi rivojlanish aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga imkoniyat yaratadi.

Innovatsion infratuzilmani shakllantirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish uchun turli uslubiy yondashuvlar mavjud. Jumladan, ayrim mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondashuv infratuzilma faoliyatining mintaqaviy jihatlarini baholashni o'z ichiga oladi. Mazkur usul orqali infratuzilmaning rivojlanish darajasi va ta'minlanganlik holati ham baholanadi¹.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati va shahar va tumanlarning innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari²

№	Shahar va tuman nomi	Innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari
1	Qarshi sh.	Maishiy va xizmat ko'rsatish, elektrotexnika va farmatsevtika sanoati, hunarmandchilik (zargarlik).
2	Shahrisabz sh.	Turizm, maishiy va xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, mebelsozlik.
3	G'uzor	Neftni qayta ishlash, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, yo'l bo'yida savdo va xizmat ko'rsatish.
4	Dehqonobod	Qurilish materiallari sanoati, pistachilik va kovrak yetishtirish hamda qayta ishlash, chorvachilik, yo'l bo'yida savdo va xizmat ko'rsatish.
5	Qamashi	To'qimachilik va qurilish materiallari sanoati, turizm xizmatlari, bog'dorchilik va uzumchilik.
6	Qarshi	To'qimachilik, charm poyabzal, kimyo sanoati, baliqchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, ziyorat turizmi.
7	Koson	To'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, tibbiy sog'lomlashtirish xizmatlari, chorvachilik, polizchilik pillachilik.
8	Kitob	Qurilish materiallari va ipakchilik sanoati, ekoturizm, uzumchilik, bog'dorchilik.
9	Mirishkor	To'qimachilik sanoati, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik, eko turizm.
10	Muborak	Kimyo sanoati, to'qimachilik, chorvachilik, tibbiy sog'lomlashtirish xizmatlari.
11	Nishon	To'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, baliqchilik, chorvachilik, sabzavotchilik.
12	Kasbi	To'qimachilik sanoati, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, pillachilik.
13	Ko'kdala	Chorvachilik, polizchilik, bog'dorchilik, parrandachilik, qurilish materiallari sanoati.
14	Chiroqchi	To'qimachilik sanoati, savdo va xizmat ko'rsatish, ziyorat turizmi, baliqchilik.
15	Shahrisabz	Eko va ziyorat turizmi, savdo va xizmat ko'rsatish, kartoshkachilik, bog'dorchilik, to'qimachilik sanoati.
16	Yakkabog'	Tog'-kon, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati, eko va ziyorat turizmi, yo'l bo'yida savdo va xizmat ko'rsatish.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida mintaqaning infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi hamda uning mintaqalardagi reytingi aniqlanadi.

Yuqoridagi jadvalda ishlab chiqilgan metodik yondashuv uch bosqichni


¹ Лыщикова Ю.В., Глотова А.С., Дынников Е.А., Титова И.Н. Методика оценки развития и результативности инфраструктуры в контексте капитализации региональной экономики // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2017. Том 7. № 9А. С. 52-64.

² Muallif ishlanmasi

o'zishiga olmoqda. Dastlabki bosqichda ko'rsatkich me'yoriydir. Keyingi bosqichda esa, mintaqadagi ko'rsatkichlar infratuzilma turlari asosida umumlashtirilmoqda. Oxirgi bosqichda umumlashtiruvchi indeksni respublikadagi ulushi aniqlanib, uning reytingi belgilanmoqda. Shunday bo'sada, mazkur yondashuvni qo'llash qator muammoli masalalarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, mazkur muammolar ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar bazasini etarli emasligi hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash talab etilayotganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, birinchi va uchinchi bosqichlarda birdek mamlakatdagi ulushini aniqlash uchun takroriy amallarni bajarayotganligi, mintaqalarning bir-biriga nisbatan emas, balki umumiy ko'rsatkichga nisbatan reytingini ifodalamoqda. Shu bois, mintaqalarni o'zaro solishtirish asosida ustunliklarini aniqlash bo'yicha usullarni qo'llash maqsadli hisoblanadi.

Klaster iqtisodiyoti ijodkorlik muhitini yaratish va innovatsion faoliyatni shakllantirishni ta'minlash imkonini beradi. Jahon tajribasida klasterlarni shakllantirishda ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi, 80-90-yillarda taklif qilingan klassik liberal yoki angla-sakson yondashuvidir. M.Porter aytganidek, xo'jalik sub'ektlarining o'zini-o'zi tashkil yetishiga asoslangan "Yerkin bozor" mexanizmlari doirasida sodir bo'ladi. Ikkinchisi — "Qutblar" deb nomlangan zamonaviy Yevropa yondashuvi raqobatbardosh biznes hamda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan.

O'zbekiston Respublikasida klasterlarning vujudga kelishi davlat tomonidan agrar tarmoqda sanoat integratsiyasini qo'llab — quvvatlash orqali sodir bo'lmoqda. Bu yesa xorijiy va mahalliy investorlarning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun me'yoriy — huquqiy hujjatlar asosida ta'minlandi. Agrar sohada qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashning ortda qolishi davlat aralashuvini taqozo qildi. Jumladan, agrar tarmoqda paxta — to'qimachilik, g'allachilik, meva — sabzavotchilik, farmatsevtika, qorako'lchilik, pillachilik klasterlari tashkil yetildi.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida klasterlar soni, birlik.

2023-yilda Qashqadaryo viloyatida **180 300 tonna tola ishlab chiqarilgan** bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **74,2 foizga o'sgan**. Ip-kalava ishlab chiqarish hajmi **73,2 foizga**, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish esa **81,0**

foizga oshgan, yog‘-moy ishlab chiqarish hajmi esa **73,1 foizga ortgan**. Ammo mato ishlab chiqarish va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi oshganiga qaramay, umumiy ishlab chiqarish hajmi yetarli emas.

Shunday bo‘lsa-da, ushbu ishlab chiqarish sohalari avvalgi yillarda mavjud bo‘lmaganini inobatga olsak, ularning klasterlar sinergetika ta’siri ostida rivojlanib borayotganini kuzatish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida **paxta-to‘qimachilik klasterlari soni 19 tani** tashkil etadi. Shundan faqat **9 tasi ip-kalava, mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi**. Bu holat O‘zbekiston iqtisodiyotiga klasterlarning kirib kelishining boshlang‘ich bosqichida ekanligini ko‘rsatadi.

2017-yildan buyon agrar sohada klasterlarni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratilgan. Ammo xorijiy va mahalliy investorlarning ushbu sohada faoliyat boshlashi sekinlik bilan amalga oshmoqda. **2021–2023-yillar** davomida klasterlar qayta ishlash sanoatida o‘z o‘rnini topa boshladi va bu yo‘nalish bo‘yicha sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Qashqadaryo viloyatida innovatsion faoliyat natijalarini joriy etish obyekti sifatida klasterlarni ko‘rsatish mumkin. Klasterlar innovatsiyalarni mintaqaviy iqtisodiyotga tatbiq etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi va eksport salohiyatini kengaytiradi. Klasterlarning rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynab, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Qashqadaryo viloyatidagi klasterlar sinergetika ta’siri ostida innovatsion faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati to‘qimachilik klasterlarining innovatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarish, marta
Sotishdan tushgan daromad	Mrld. so‘m	141 265	211 230	1 152 502	3 412 807	4 837 871	34,2
Xarajat	Mrld. so‘m	141 794	326 385	1 667 868	3 317 123	4 125 896	29,1
Sof foyda	Mrld. so‘m	-529	-115 155	-515 366	95 684	711 975	x
Rentabellik, %	Mrld. so‘m	x	x	x	2,9	17,3	x
Texnologik transfer xarajatlari	Mrld. so‘m	227 683	1 181 035	1 765 899	1819442,0	3 882 529	17,1
Asosiy vositalar	Mrld. so‘m	178 297	713 492	1 012 647	1 365 765	1 789 175	10,0
Tovar moddiy zaxiralar	Mrld. so‘m	49 386	695 226	1 934 287	2 219 576	3 912 796	79,2
Ishchilar soni	Kishi	5 596	6 383	7 212	8 159	7 872	1,4

Qashqadaryo viloyatida to‘qimachilik sanoati asosida klasterlar shakllanib bormoqda. Chunki qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish va sanoat bilan integratsiyani rivojlantirishning boshqa imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan. Qashqadaryo viloyatida to‘qimachilik klasterlarining soni 19 tani tashkil qiladi.

Jami to‘qimachilik klasterlari bo‘yicha sotishdan tushgan daromad 2023-yilda 4 837,871 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 34,2 martaga oshgan. Qilingan xarajatlar esa mos ravishda 29,1 martaga oshgani 2-jadvaldan ko‘rinadi.

¹ Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyonlangan

Sof foyda 2019–2021-yillarda kuzatilmagan. Faqatgina 2022–2023-yillarda sof foyda qayd etilgan bo‘lib, 2023-yilda 41,425 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 153,879 mlrd. so‘mga kamaygan. Rentabellik darajasi mos ravishda 6,1 – 0,9 foizni tashkil qilgan.

Klasterlar tomonidan 2023-yilda texnologik transferlar hajmi 3 882,529 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 17,1 martaga oshgan. 2019–2023-yillarda klasterlar bazasidagi asosiy vositalar hajmi 10,1 martaga, tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish esa 79,2 martaga oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlarning agrar sohadagi islohotlarga asoslangan tamoyillarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash orqali mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish mumkin. Ushbu yondashuv qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishga, iqtisodiy, ijtimoiy va ishsizlik muammolariga samarali yechim topishga imkon yaratadi. Bu esa ishlab chiqarish korxonalarining kadrlarga bo‘lgan talabini oshiradi va kerakli mutaxassislarni yetishtirish hamda innovatsiyalar rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar va ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyatiga yangicha yondashuvni joriy qilish orqali ilm-fan rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti rivojlanishida investitsiyalar darajasi va ishchi kuchining malakasi muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sanoat sohasini kengaytirish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-yanvardagi “2020 — 2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4565-son¹ qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son² Farmoni.
3. Kuznetsova N.V., N.A. “Кластерезация экономики: зарубежный опыт развития и перспективы России” // Экономика науки, 2016.
4. Porter, M. (1998). *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review.
5. Азгальдов, Г. Г., & Костин, А. В. Интеллектуальная собственность, инновации и квалиметрия // Экономические стратегии, 2008, № 2(60), 162–164.
6. Титова, М. Н., Ильинская, Е. М., & Кириллова, О. В. Система оценки результативности и эффективности различных типов инноваций в рамках научно-производственного кластера // Научный журнал. Известия ГУАП, 2013, № 3, 47–57.

¹ <https://lex.uz/docs/-4691316>

² <https://lex.uz/docs/-4567334>

7. Султонов, С. (2024). Аҳоли даромадлари табақалашувини камайтириш борасидаги ислохатларни такомиллаштириш йўналишлари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(4), 526–532.
8. Жўраев, Ф.Д. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли прогнозлаштириш // Инновацион технологиялар, 2(42), 92–95.
9. Rakhimov, A.N., & Jo'raev, F.D. (2022). A Systematic Approach to the Methodology of Agricultural Development and the Strategy of Econometric Modeling. *Resmilitaris*, 12(4), 2164–2174.
10. Juraev, F.D.S. (2021). Problems of Informatization of Management of Agricultural Industry and Modeling of Agriconomic System in a Market Economy. *The American Journal of Applied Sciences*, 3(02), 49–54.
11. Mukhitdinov, K.S., & Juraev, F.D. Methods of Macroeconomic Modeling. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*, e-ISSN 2456-6470.
12. Rakhimov, A.N., Makhmatkulov, G.K., & Rakhimov, A.M. (2021). Construction of Econometric Models of Development of Services for the Population in the Region and Forecasting Them. *The American Journal of Applied Sciences*, 3(02).
13. Raximov, A.N. (2023). Dehqon xo'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar. *Экономика и социум*, 3-2(106), 255–262.
14. Jo'rayev, F.D.S., & Normurolovich, S.S. (2024). Agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy qilish, mahalliy mahsulotlarning raqobatdoshligini oshirish. *Journal of Innovations in Scientific and Educational Research*, 7(11), 158–163.
15. Mukhitdinov, K.S., & Rakhimov, A.N. (2020). Empirical Models Which Were Built for Each Sector of the Service Sector to the Population of the Region. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(12), 72–85.
16. Maxmatqulov, G.X. (2023). Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy uslubiy yondoshuvlari. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 378–386.
17. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellash tirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 245–250.